

**XOJA AHMAD YASSAVIY HIKMATLARI TAFSIRI IBOHIM HAQQUL  
ASARIDA: TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK UYG'UNLIGI**

*Tolibova Farida Farhodovna*

*Navoiy davlat universiteti I bosqich tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Ibrohim Haqqulning “Ahmad Yassaviy” asari asosida Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining tarixiy-falsafiy mazmuni va ularning zamonaviy talqini tahlil qilinadi. Muallif Yassaviy ijodining ontologik ildizlarini o'zbek ma'naviyati kontekstida o'rganar ekan, hikmat janriga nafaqat adabiy, balki ruhiy-ma'naviy fenomen sifatida yondashadi. Tezisda hikmatning ichki struktura tizimi, ijtimoiy va axloqiy yuklamasi, bugungi davrda uning tarbiyaviy ahamiyati haqida ilmiy xulosa berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Yassaviy, hikmat, Ibrohim Haqqul, tasavvuf, axloq, milliy ong, tarixiylik, zamonaviylik, ma'naviy-ma'rifiy tafakkur.

Ibrohim Haqqulning “Ahmad Yassaviy” nomli asari — o'zbek adabiy-falsafiy tafakkuri tarixidagi muhim manbani zamonaviy nigoh bilan talqin etishga bo'lgan ilmiy harakatdir. U hikmatlarni shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki xalq ma'naviyati, ruhiy tarbiyasi va ijtimoiy hayotidagi faol kuch deb baholaydi. Asarda Xoja Ahmad Yassaviy ijodining g'oyaviy-falsafiy ildizlari, tasavvufiy qatlamlari, badiiy-uslubiy xususiyatlari va ular orqali shakllangan “komil inson” tushunchasi mukammal ochib berilgan.[1.16].

Ibrohim Haqqul tasavvufiy hikmatni “so'zlar ichida so‘z” deb ta'riflaydi. Bu ta'rif tasavvuf tabiatiga juda mos: zohiriyl shakl ostida botiniy ma'no yashiringan. Yassaviy hikmatlarida insonning ruhiy tozalanishi, nafs bilan kurash, iymon, sabr, shukr, tavba, rozi bo'lish kabi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi. Haqqul bu tushunchalarni nafaqat tasavvufiy tilda, balki zamonaviy o'quvchiga tushunarli tilda izohlab, hikmatlarni hayotiy voqealar, shaxsiy tajribalar va tarixiy kontekst orqali boyitadi.[2.332].

Haqqul Yassaviy hikmatlarida o'z aksini topgan tarixiylik va zamonaviylik

masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, Yassaviy davridagi ijtimoiy-ma'naviy muhit bugungi kunga qanchalik begona ko'rinsa-da, ruhiy muammolar — insoniy zaiflik, yolg'on, riyo, hasad, jaholat — hanuz saqlanib qolgan. Shu boisdan hikmatlarda aks etgan axloqiy konsepsiylar, Allohga tavakkul va ma'naviy komillik g'oyalari XXI asr jamiyatni uchun ham dolzarbdir.[2.225]. Haqqul ana shu g'oyalarni hozirgi davr kontekstiga ko'chira olar ekan, Yassaviyni "o'tgan zamon shoir"i emas, balki "har bir davr uchun zarur murshid" sifatida qayta kashf etadi.

Yana bir muhim jihat shuki, Ibrohim Haqqul Yassaviy hikmatlaridagi til va uslub xususiyatlarini tahlil qilishda ularni adabiy-folkloriy va tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashadi. Hikmatlar soddaligi, obrazlar tabiiyligi, xalq iboralari va turkiy arxaizmlarning serqatlamligi orqali chinakam xalqona ruh bilan sug'orilgan. Haqqul bu tilni "xalq tafakkuri tili", "sukutdagi haqiqat" deb ataydi. U hikmatlardagi qisqa, lekin chuqur mazmunli misralarni "aforizmlashtirilgan haqiqat" deb baholaydi. Ayniqsa, har bir hikmat ichida yashiringan ruhiy paradokslar, allegorik obrazlar va fano-haqiqat kontrastlari Haqqul tahlilida zamonaviy psixologik va falsafiy talqinga ega bo'ladi. Shuningdek, muallif hikmatlardagi o'qituvchi-shogird, murshid-murid munosabatlarini bugungi ta'lim tizimi, ruhiy tarbiya va yoshlar axloqiy shakllanishi bilan bog'laydi. U Yassaviy hikmatlarini zamonaviy pedagogik fikr nuqtai nazaridan qayta o'qishga chaqiradi. Zero, hikmatlar — bu faqatgina diniy-mistik matn emas, balki jamiyatni tarbiyalovchi, shakllantiruvchi, ma'naviy poklovchi hayotiy dasturdir. Yassaviy hikmatlaridagi g'oyalari bugungi yoshlar uchun o'ta zarur axloqiy mezonlarga ega. Ibrohim Haqqulning "Ahmad Yassaviy" asarida ushbu mezonlar zamonaviy til, obrazlar va misollar orqali tushuntiriladi. Bu esa, o'quvchi ongiga hikmatni faqat matn sifatida emas, balki ruhiy-axloqiy kuch sifatida singdirish imkonini beradi. Quyida hikmatlardan namuna keltirildi, undagi badiiyat kishini maftun etadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

"Har kimda yo'q ersa dardu g'am, inson emas,

Ko'nglida yo'q ersa ul ilhom, devon emas."

Bu hikmatda Ahmad Yassaviy tasavvufga xos bo'lgan ruhiy iztirobni ma'naviy kamolot sharti deb biladi. Uning nazarida inson — shunchaki jism emas, balki qalbda ma'rifikat, og'riq, ruhiy g'am tashuvchi mavjudotdir. Bu fikr, Ibrohim Haqqulning "Ahmad Yassaviy" asarida ta'kidlanganidek, dard va ilhomni insoniylik mezoni sifatida baholashda yaqqol ko'rindi. Hikmatdagi birinchi misra – "Har kimda yo'q ersa dardu g'am, inson emas" – shunchaki tashqi dard emas, balki ruhiy iztirob, ilohiy ishq, dunyo g'avg'osidan qochish istagini anglatadi. Ibrohim Haqqul bu jihatni "nafs bilan kurash va poklanish yo'lida azoblanish – bu insoniy yetilishga eltuvchi zaruriyat" sifatida tushuntiradi. Ikkinci misrada esa – "Ko'nglida yo'q ersa ul ilhom, devon emas" – Yassaviy ruhiy uyg'oq qalbni ilhom manbai, ilohiy ishqdan yongan yurakni esa she'riy ilhomning markazi deb ko'rsatadi. Olim o'z tahlilida shuni alohida ta'kidlaydi: "Yassaviyda ilhom ilohiy qalqish, qalbga tushgan nurlar to'plami sifatida baholanadi, bu esa tasavvufiy tajribaning eng yuksak bosqichidir".[1.28].

Ikkala misra ham komil inson g'oyasining poydevoridir. Yassaviy uchun komillik faqat ilmda emas, balki qalb pokligida, dardni his eta olishda, ilhomga layoqatli bo'lishda mujassam. Bu esa, Ibrohim Haqqul tomonidan "Tasavvufiy tafakkurda axloqiy yuksalish va qalbiy uyg'onish" deb nomlanadi.[1.26].

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim Haqqulning Yassaviyga bag'ishlangan tadqiqoti hikmatlarni faqat filologik manba sifatida emas, balki madaniy-falsafiy xazinaga aylantiradi. U hikmatni tirik matn, yashovchi hodisa sifatida talqin qiladi va bu orqali o'zbek adabiyotshunosligi, tasavvufshunosligi va madaniyatshunoslikda yangi metodologik yondashuv yaratadi.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Haqqul I. Ahmad Yassaviy. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2020.

2. Komilov N. Tasavvuf . — Toshkent: Sharq, 2001.
3. Mirvaliev B. O'zbek adabiyoti tarixi. I jild. — Toshkent: Fan, 2000.
4. Yassaviy A. Devoni hikmat / Nashrga tayyorlovchi: N. Komilov. — Toshkent: Sharq, 1993.